

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XORIJY TILLAR FAKULTETI

“Ingliz tili” ta’lim yo‘nalishi 4 - kurs talabasi **Ortiqova Sarvinozning**

«**Ingliz tili**» fanidan yozgan

Referati

Mavzu: Sportga oid atamalarning o‘rganishning muammolari



QARSHI - 2014 yil

Sportga oid atamalarni o'rganishning nazariy muammolari

Hozirgi paytda dunyo tilshunosligining diqqat markazida turli xil mavzular bilan birga terminologiya ham turibdi. Aynan shu davrda zamonaviy tilshunoslik fanida yanada keng ma'no kasb etgan va chuqurroq o'rganilayotgan "terminologiya"ni topish mushkul bo'lsa kerak.

Mualliflar terminlarning strukturasi va yasalishi, paydo bo'lish yo'llarini, terminlarning maxsus xususiyatlarini va ayrim bilim sohasining terminologiyasi tarkibi, terminlarni tartiblash, standartizatsiya qilish yo'llari va h.k.larni o'rganishgan. Ikki tilning (ingliz va o'zbek) butun terminologik tizimini qiyosiy o'rganish masalasi, qolaversa, ular o'rtasidagi parallellarni va tafovutlarni o'rganish ko'p tomonlama ochilmagan masalalar sirasiga kiradi. Terminologiya tizimining butun strukturaviy qiyinchiligini qiyosiy jihatdan o'rganish o'rniga tilshunoslar ikki tilda mavjud kam sonli terminlarning tafovutlarini o'rganganliklari bilan maqtanishadi. Biroq, bu kabi kam tafovutlarni o'rganish ikki til terminologiya tizimidagi strukturaviy farqlar, murakkab ichki terminologiyani "tashqi signali" sifatida o'rganish kabi yetarli emas.

Bilim, sanoat yoki madaniyatning biror maxsus sohasidagi so'z yoki so'z birikmasi termin deb ataladi. Termin ifoda etayotgan biror so'zning mazmuni mavzuli biror adabiyotda izohlash orqali talqin qilinadi. So'zlar ifodasi lingvistik termin deb hisoblanishi mumkin deb yozishgan edi Z. Xarris va I. F. Frayzlar . Ular deskriptiv lingvistika tarafdorlaridan bo'lib, so'z ifodasini quyidagicha ta'riflaydilar:

"So'z ifodasi insonning har qanday nutqi bo'lib, u sukutdan oldin yoki keyin ifoda etilishi mumkin".

Fanning har bir bo'limi yoki maktabi o'z tabiati va metodlariga moslab maxsus terminologiyani rivojlantiradi. Bunday maxsus terminologiya ilmiy izlanishning muhim qismi bo'lib, o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki u rivojlanishga katta hissa qo'shadi.

Sport terminologiyasining (jumladan, ingliz va o‘zbek tillari) masalalarini ishlab chiqishda rus tili sport terminologiyasiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar muhim rol o‘ynab kelgan.¹

Bu borada qobiliyatli terminshunos, terminologik tadqiqotlar tashabbuskori D. S. Lottening ishlari alohida diqqatga sazovordir. Prof. M. B. Sergeyevskiy uning ishlari haqida shunday deydi:

D. S. Lottening tadqiqotlari rus tilshunosligi uchun ham, rus tili terminologiyasini tartibga solish uchun ham juda katta ahamiyat kasb etadi...□.

Bu o‘rinda shuni qayd etish kerakki, D. S. Lottening ishlari ingliz va o‘zbek tilshunosligi va terminologiyasi uchun xuddi ana shunday ahamiyatga egadir. Chunki uning asarlarida terminlarni tartibga solish va termin yasash kabi eng dolzarb masalalar o‘z ifodasini topgan.

D.S. Lotte terminologik tizimni yuzaga keltirishda qator usullar mavjud ekanligini ko‘rsatib beradi. Bu esa ingliz terminshunosligi uchun ham, o‘zbek terminshunosligi uchun ham birdek muhim hisoblanadi. U terminlar yasashning quyidagi usullarini ko‘rsatib o‘tgan:

1. o‘xshashlik, tashqi o‘xshashlik yoki o‘zaro bog‘liqlik asosida, ko‘chirish yo‘li bilan mavjud terminlarning yoki umuman taomildagi so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirish, masalan:

referee – referi; out – aut;

Slalom – slalom; knockdown – nokdaun.

2. Turli affiks (suffiks, infleks)larni ishlatib mavjud so‘zlardan yangi so‘z yasash, masalan:

offside – tashqarida

safetiness – xafvsizlik

3. Mavjud bo‘lgan mustaqil so‘z va o‘zaklarni (bular ba’zan qisqargan

1

¹ M.B. Sergeyevskiy. Orziv o rabote D.S. Lotte. Obrozovanie pravopisanie treh elimentnih nauchno-tehnichiskikh terminov. M. 1965 str.4

bo'lishi mumkin) bir-biriga qo'shishi yo'li bilan yangi qo'shma (ko'p o'zakli) so'z hosil qilish, masalan:

sneak – qo'pol o'ynash

weak – zaif o'yin

4. Birikma terminlarni hosil qilish, ya'ni ikki yoki bir necha mustaqil so'zlarni mavjud bo'lgan biror sintaktik forma vositasida doimiy birikmaga aylantirish.

Masalan:

Best ball – ikki kishilik o'yin (golfd)

Dance Floor – o'yin maydoni

D. S. Lotte tomonidan ko'rsatib o'tilgan termin yasash usullari ingliz va o'zbek terminshunosligida ham o'zining amaliy tadbirini topmoqda. Qayd etish kerakki, uning "terminologiyani barpo etishning asoslari", "terminlarning qisqa formalari", "uch elementdan iborat terminlarni yasash va ularning imlosi" nomlari bilan e'lon qilingan asarlari to'plamlari nafaqat rus tilining, balki boshqa tillar terminologiyasining nazariy masalalarini ishlab chiqish va shu asosida milliy terminologiyani vujudga keltirishda ham qimmatli manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Ma'lumki, sport terminologiyasiga bag'ishlangan ishlarning deyarli barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan definitsiyaga ega bo'lgan va asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. Keyingi paytlarda qaysi so'z turkumlarini termin deb hisoblash borasida munozara yuzaga kelgan.

Mana shunga o'xshash fikrlar boshqa olimlarning asarlarida ham aytib o'tilgan. Bu fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, faqat ot turkumiga kiradigan so'zlarga terminlashishi mumkin ekan. (V. P. Danilenko /1967/40).

Bu fikrni u (Danilenko) quyidagicha asoslashga urinadi: birinchidan, ilmiy adabiyotlarda xar xil so'z turkumlariga oid leksik birliklar qo'llaniladiki, ular terminologik ma'no kasb etadi. Ikkinchidan, tilshunos N. S. Avilova animalizirovat, aromatizirovat, lokalizirovat, garmonizirovat kabi fe'l terminlar, shuningdek, generalizirovat, dogmatizirovat, vulgarizovat kabi umumiy abstrakt

ma'noli fe'llar terminlashadi deb hisoblaydi (N. S. Avilova /1967/160). Uchinchidan, bir qancha maxsus terminologik lug'atlarga obyektivniy, minovsiy, disparatniy kabi sifat–terminlar, bezvozmezdno; adagio (sekin), grave (vazmin) kabi ravish-terminlar kiritilgan. Mana shularga asoslanib, otdan boshqa so'z turkumlari ham terminlar jumlasiga kiradi deb hisoblaydi.

Tilshunos olim N.A. Chechlova o'zining maqolasida shunday deb yozadi:

“Har qanday taraqqiy etgan terminologiya oliy darajadagi mavxumlashishni taqozo etadi. Terminologiya real narsani va harakat nomlarining majmuidan emas, balki narsa va harakat tushunchalari nomlarining muayyan tizimidan iboratdir. Shuning uchun predmetlar, sifatlar va harakatlar haqidagi tushunchalarni ifodalovchi yagona leksik-semantik vositalar bo'lib, so'zning tom ma'nosida otlar maydonga chiqadi [N.A. Chechlova. /1963/89].

Biz ham shu fikrga tamoman qo'shilmiz va faqat ot turkumiga oid so'zlargina terminologiya obyekti bo'la oladi deb hisoblaymiz. Boshqa so'z turkumlariga kelsak..., agar ular termin tarkibiga srukturaviy komponent bo'lmasa, ular muayyan tushunchaning harakat qilishi jarayonida (ilmiy bayon qilish jarayonida) kerak bo'ladi. [S. M. Gurdin /1959/107/]

Arnoldning fikriga ko'ra, terminlarning kelib chiqishi ko'pgina kanallarga borib taqaladi va ulardan uchtagina terminologiyaga xosdir. Ular quyidagilardir:

1. Klipping, ellipsis, blending, abbreviatura orqali terminologik iboralarning paydo bo'lishi:

transistor Receiver – transistor — trannie;

ecological architecture – ecotecture.

2. Lotin hamda Grek tillaridan olingan qo'shma shakllarning ishlatilishi: aerodinamika, mikrofilm, telegraf, supersonik.

Bu jarayon ko'pgina tillardagi terminologiyaga xosdir.

3. Aynan biror tilning ichidagi terminologik tizimdan o‘zlashtirish uchraydi, chunki o‘sha sohada o‘xshashliklar mavjud. Masalan, dengiz terminologiyasi aviatsiya lug‘aviy boyligida ham uchraydi. Tilshunoslik sohasiga qaytadigan²

bo‘lsak, ritorikadan olingan metafora, metonimiya, sinekdoha, va shu kabilarni uchratishimiz mumkin.

Oxirgi ikki metod lug‘atning boshqa qatlamlari bilan uzviy bog‘liqlik jihatlari bor. Bulardan biri so‘z yasalishi bo‘lib, unda semantik moslashuv, derivatsiya kabilar faol ishtirok etadi. O‘zlashtirib olingan terminlarning xarakteri, predmet va fikrlarni bildirgan yana o‘sha terminlar dunyo madaniyati tarixi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqadiki, o‘zlashtirish jarayoni har bir sohada mavjud, demakki deyarli barcha terminologiya internatsional (baynalminal) bo‘lishi mumkin.

YE.V. Filippovaga ko‘ra, terminlar bir xil strukturaga ega bo‘lishiga qaramasdan, boshqa sohada ham uchratish mumkin, ya’ni u ham Arnoldning fikriga qo‘shiladi. va misollar keltiradi³:

aviator`s ear – aviatorning qulog‘i emas, balki qon bosimini to‘satdan tushib ketishi natijasida o‘rta quloqchanning shamollashi;

boxer`s encephalopathy – bokschining ensefalopatsiyasi emas, balki bokschilarda uchraydigan travmatik ensefalopatiya;

wool- sorter`s disease – yungni saralaydigan kishining kasalligi emas, balki ularda uchraydigan sibir yazvasining ko‘krakka tushadigan shakli.

Ushbu misollarda ko‘rinib turibdiki, aviatsiyaga oid (aviator), sportga oid (boxer) va qo‘ychilikka oid (wool – sorter) terminlar meditsinada ishlatilishi kuzatilgan. Bu misollardagi birinchi ot qism kasbni yoki biror ish faoliyatni bildirsa, ikkinchi ot qismi esa ta’na a’zosi yoki organ nomini bildiradi. Bu esa idiomatik hisoblanadi.

A. A. Refarmatskiy terminga tarif berar ekan, “terminlar – bu maxsus so‘zlardir” degan xulosaga keladi. [A.A. Refarmatskiy /1955/80/].

² Н.А.Щетлова, К вопросу о грамматических средствах терминологизации русских глаголов в профессиональной речи XVII-XVIII вв. – «Ученые записки МОПИ» Т. XXXVIII, вып. 8, М., 1963, стр

A. B. Kalinin muayyan fanlar kasb-korlikda ishlatiladigan soʻzlarni “maxsus leksika”da deb ataydi va uni ikki guruhga boʻladi:

1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda terminlar kiradi. Termin – bu ilmiy – texnika, qishloq hoʻjaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning atamasi boʻlgan soʻz yoki soʻzlar birikmasidir. [A.B. Kalinin /1971 /135].

2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi.

“Maxsus leksika”ni mashaqqatli shu tarzda ikki guruhga boʻlish tamoyiliga oʻzbek tilshunosligida ham amal qilinmoqda. Masalan:

“Terminlar ... fan va texnikaga oid tushunchalarni shuningdek, kasb hunarga oid tushunchalarni ifodalab keladi. Mana shunga koʻra terminlarni asosan ikki katta guruhga: professional va ilmiy terminlarga ajratish mumkin”.

Kasb-hunarga oid boʻlgan soʻzlar professionalizm, professionalizmlar yigʻindisi esa professional leksika deyiladi.

Termin fan, texnika sanʼat sohasidagi bir aniq tushunchani ifodalaydigan soʻz yoki turgʻun iboradir.

Terminlar lugʻatning boshqa qatlamlaridan alohida qilib oʻrganilmaydi. Sivilzatsiyaning rivojlanishi va oʻsishi bilan koʻpgina maxsus tushunchalar har bir kishiga maʼlum boʻlib bormoqda va ularning har kunlik soʻzlashuv nutqlariga aylanmoqda. Radio va televizorga ega uylarda antenna teletayp tranzistor kabi radio atamalar barchaga maʼlum boʻlib bormoqda. Shunday jarayon paytida ular (terminlar) oʻzlarining maxsus terminologik harakatlarini yoʻqotadi va maʼnolari jihatidan oddiy soʻzlarga oʻxshab qoladi. Elementlarning doimiy ichki oʻzgaruvlari ham oshib boraveradi. Har kuni ishlatiladigan ingliz lugʻati, asosan yuqori chastotaliligi va polisemiya bilan xarakterlanuvchi qismi yangi terminlarni paydo qilishga ham manba boʻla oladi.

Fan va texnikaga boʻlgan qiziqishning tobora ortib borayotganligi bois gazeta; jurnal va fantastik asarlardan kun sayin yangidan yangi atamalar kirib kelmoqda.

Shunday qilib, terminologik birliklarning koʻpchilik qismi (maʼnaviy komponentidan tashqari) oʻz semantik tizimida “ijtimoiy dunyoqarash”ni tashkil

qiladi yoki boshqacha ta'riflaganda professional so'zlashuvning ma'lum doirasi bilan aloqalarni anglatuvchi ijtimoiy shartlangan turli konnotatsiyaga ham ega bo'ladi.³

Terminologik birliklarni ijtimoiy konnotativ belgilari asosiga ko'ra inson faoliyatining aniq bir doirasiga kiritish qiyinligi ijtimoiy faoliyatning ko'p tomonli ekanligi, uning turlarini o'sishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli biror tilda so'zlashuvchilar u yoki bu terminologik doimo qo'llanilayotgan professional kommunikatsiya doirasini belgilashlari mumkin. Masalan, tangens atamasi ko'pincha trigonometriya bilan, yanada kengroq qilib aytsak, "matematika"ga oid.

Terminlar borasida so'z ketarkan yana bir olimning fikrini bayon qilmoqchimiz. T. M. Penkova filologiya nomzodini olish uchun yozgan ilmiy ishida termin, terminologik tizim va terminologik maydon tushunchalariga ta'rif beradi. Uningcha, termin – bu maxsus tushuncha (ma'no)ga tenglashtirilgan va chegaralangan, mos talqiniga ega so'z yoki qotib qolgan so'z birikmasi.

Agar tarjimada so'z birikmasi a'zolarining muqobillari bo'lib, abbreviatsiya jarayoni faqat ingliz so'z birikmasida sodir bo'lsa, til ichki sabablaridan tashqari tashqi sabablar ham sabab bo'ladi.

Xullas, ko'pgina ko'rib o'tilgan terminlarni xizmat ko'rsatish, savdo, marketing, ilmiy-tadqiqot sohalarida uchratish mumkin. Bularga qiziqish esa mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishi sari ortmoqda. Shu sababli terminlarning paydo bo'lishi va mavjudligi qonuniy xarakterga ega bo'lib, o'sha til jamiyatida kerakli faoliyat doirasida o'z aksini topgan.

Sportga oid atamalar boshqa sohaga oid terminlardan maxsus termin (va qisqartma)larga boyligi, so'z qo'llashdagi an'anaviylik va ayrim sintaktik iboralarni nisbatan ko'proq ishlatilishi bilan ajralib turadi. Biror matn (ayniqsa sportga oid matn)da maxsus terminlarning ko'p miqdorda bo'lishi, ayniqsa yaqinda yangitdan paydo bo'lganlari (neologizmlar) va hali lug'atlarda qayd etilib ulgurmaganlari amaliyotda sezilarli qiyinchiliklarga olib keladi. Sport tilining bu

³ А.А.Реформатский. Введение в языкознание, М., 1955, стр. 80,

qadar yangi terminlarga boyligi terminlar til lugʻat tarkibining tabiatan harakatchan qatlami ekanligi bilan izohlanadi. Tilning lugʻat tarkibi - uzliksiz ravishda toʻlib boradi va bu lingvistik hodisa fan va texnikaning rivojlanish, ularning jamiyatdagi mavqeining oshishi hisobiga, soʻngi yillarda fan va texnika taraqqiyotining intensiv suratlarda oʻsish natijasida yuzaga kelgan yangi tushuncha va hodisalarni atash, nomlash uchun yaratilgan yangi maxsus terminlar hisobiga yuz bermoqda.

Sportga oid iboralar ikkinchisi esa – maxsus (ilmiy yoki yasama) terminlarga xos. Xoʻsh, termin oʻzi nima, u boshqa soʻzlardan nimasi bilan farqlanadi.

Keling misol uchun ikki guruh mansub soʻz va iboralarni qiyosiy oʻrganib koʻraylik:

qogʻoz – blok (boks)

sudramoq – sprinter (yugurish)

chiroyli – chip (golf)

Avvalambor shuni taʼkidlab oʻtish joizki, soʻzning birinchisi keng qoʻllaniladi va har bir savodli odamga tushunarlidir. Biroq ushbu tarifni misollarning ikkinchi qismidagi soʻzlarga nisbatan qoʻllab boʻlmaydi. Chunki ular maxsus sportga xos tushunchalarni ifodalab faqatgina sportning aniq sohasidagina qoʻllaniladi. Demak sportga oid soʻzlarni umumhalq leksikasi soʻzlardan dastlabki farqi ular maxsus sport tushunchalarini anglatishidadir. Atamalar, shuningdek boshqa oddiy soʻzlardan oʻzining yuqori maʼnaviy aniqligi bilan ham farqlanadi. Atamalarning yuqori aniqligi ularning maxsus lugʻatlarda alohida qayd qilinishi va taʼriflanishi bilan taʼminlanadi.

Atamalarning aniqligi asosan ularning aslida mavjud maʼnosidadir. Atamalarning asli maʼnosi yoki (yoki ularning maʼnoviy tuzilishi) odatda ularning haqiqatdagi maʼnosi bilan qisman mos keladi. Masalan:

Flop shot atamasining asl, aynan maʼnosi a short shot, played with an open stance and an open clubface, designed to travel very high in the air and land softly on the green.

Mickey Mantle atamasining maʼnosi making a score of 7 on a hole.

Terminning asl ma'nosi yoki aniqroq aytadigan bo'lsak, uning ma'no tuzilishi predmetning (narsa yoki hodisaning) eng muhim xususiyatlaridan birini aks ettirishi lozim. Terminologiyada ma'no tuzilishi bevosita to'g'ri ilmiy tushunish, berilgan tushunchaning aniq tasnifi bilan bog'liq. Aniq ilmiy tasnifiga ega bo'lmagan tushuncha hodisa, voqeaning spetsifika (maxsus ma'no)sini aks ettiruvchi aniq nomga ega bo'la olmaydi.

Biroq, zarur bo'lgan atamalar emas, balki faqatgina yetarli bo'lgan belgi-alamat asos qilib olinadigan bo'lsa, unda kelgusida terminlashtirish obyektining u yoki bu o'ziga xos jihatlarini o'zgarishi bilan termin ma'no tuzilishi uning haqiqiy mazmuniga mos kelmay qoladi. Masalan, Pop-up termini oddiy ikki tillik lug'atda "to'satdan paydo bo'lmoq" deb beriladi, biroq golfda esa "a poor teye shot where the top of the clubhead strikes under the ball, causing it to go sraight up in the air" ma'nosini anglatadi. Mana shu asnoda termin yaratilayoganda ham zarur, ham yetarli bo'lgan belgi-atamalar etibordan chetda qolmasligi kerak. Faqatgina zaruriy va yetarli atamalarning majmui predmetni to'laligicha tavsiflaydi va u haqidagi yaqin tushunchalardan chegaralaydi.

Kelgusida berilgan predmetning butunlay tavsiya berish uchun olinadigan zarur, ham yetarli alomatlar va har qanday boshqa tegishli atamalar umumiy terminga xos alomatlar deb belgilanadi.

Xos alomatlar terminda leksik alomatlar yordamida ifodalanadi. Xos alomat bu umuman aytganda terminlashtirilayotgan tushunchani o'ziga tegishli bo'lgan fan tushunchasidir. Leksik alomat esa bu lingvistik tushunchadir. Lekin leksik alomat orasida uning yordamida termin ma'no qurilishiga xos alomatlar ifodalanadigan leksik materilni tushunamiz.

Shu yo'sinda termin asoslanishi (motivirovkasi) ikki faktorga bog'liq,

1. Bu obyekt ning alomati tanlovidan
2. Bu tavsiyalovchi alomatni ifodalash uchun qo'llaniladigan materialning tanlanishidan.

Leksik alomat yoradamida ifodalangan tavsiyalovchi xos alomat terminning lug'aviy ma'nosini ta'minlaydi va yuzaga keltiradi. Termin leksik ma'nosi asosida

biz termin sifatida qoʻllanilayotgan maʼno tuzilishidan keltirib chiqariladigan (yaʼni termin tashkil qiladigan leksik elementlar maʼnosida) soʻz yoki soʻzlar birikmasining maʼnosini va ularning umumhalq nutqida rejalashtirishni tushunamiz.

Maʼlumki, sport terminologiya tizimi birligi sifatida termin aniqlovchisi bilan oydinlashtirilgan va cheklangan leksik maʼno nazarda tutiladi.

Masalan, Push soʻzining leksik maʼnosi – “to use force to move or to try to move somebody or something”, sport termini sifatida – a shot played severely to the right; as opposed to slices, which curve from left to right, a pushed shot goes directly right. Koʻrinib turibdiki, leksik maʼno termin maʼno tuzilishida qisman aks etsada bir qator predmetlardan chegaralovchi xos atmalarga ega terminologik maʼno esa, albatta, oʻz ichiga aniq ifodalanmagan, boshqa narsalardan farqlanib turuvchi atamalarga ega.

Terminlarning aniqligi terminologiyada omonimiya va polisemiyaning yoʻqligini nazarda tutadi. Agar termin ostida xar xil narsalar anglashilsa, u aniq boʻla olmaydi. Aslida kontekst termin maʼnosiga taʼsir koʻrsatmasligi kerak, ming afsuski, har doim terminologiya tizimida ham anch-muncha koʻp maʼnoli terminlarni uchratish mumkin. Buni qanday tushintirish mumkinki, yuzaga kelgan yangi tushunchani ifodalash uchun koʻpincha shu vaqtgacha boshqa tushunchani, predmet yoki hodisani anglatib kelgan termindan foydalaniladi. Masalan, Skin atamasi oddiy soʻzlashuv tilida odam terisini anglatadi. Sport terminologiyasida esa a skins game pits players in a type of match play in which each hole has a set valuye (usually in money or points) nazarda tutilgan.

Sport terminologiyasining boshqa muhim xususiyati bu uning batartibligi va muntazamligidir. Maʼlum bir ilm-fanning terminologiyasi bu faqatgina ushbu ilm-fanning tushunchalarini ifodalovchi bir qator terminlar majmui boʻlsada, balki oʻzining oʻzaro aloqasida ushbu ilm-fan rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan tushunchalar oʻzaro aloqasini oʻzida aks ettiruvchi terminlar tizimi hamdir.

Buni sport atamolari misolida namoyish etish mumkin: Stableford Scoring System, Thin shot, Vardon grip, Big serve, Counterpuncher, Double Bagel, Golden Slam va h.k.lar.

Shu tarzda ko‘rinib turibdiki, noma‘lum atama struktural-ma‘noviy tahlilning barcha bosqichlarida tarjima qilinayotgan terminning ma‘nosini aniqlovchi ham sof tilga va ham sportga oid jihatlari inobatga olinishi shart ekan.

Ilgari noma‘lum bo‘lgan ijobiy atamaning tarjimasi to‘g‘riligini faqatgina amaldagi tushunchani ifodalash uchun nima sababdan aynan u yoki bu termin tanlanishining lingvistik va texnik jihatidan asoslanganligi ma‘lum bo‘lgandagina to‘la ishonch hosil qilish mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, atama qanday ajralib turadigan, o‘ziga xos alomatlarini, ular qanday til vositalari yordamida aks ekanligi, aynan nimaga shu alomatlar, nima sababdan ular aynan o‘sha til vositalarida o‘z aksini topganligi va shu kabi jihatlarni bilish muhimdir.

Bu kabi savollar sportda qo‘llaniladigan qisqartmalar misolida javob berishga harakat qilamiz.

Keling, WTA qisqartmasini olaylik. Bu qisqartma sport sohasiga tegishli bo‘lib, Oxford NED lug‘atidan uning to‘liq atalishini – Women’s Tennis Association ligini bilib oldik. Avvalom bor shuni qayd etish lozimki, tarjima u yoki bu tahlil etilayotgan matn sportning qaysi sohasi yoki jabhasiga taalluqli bo‘lsa, tarjimon yoki tadqiqotchi o‘sha soha bilan yaxshi tanish bo‘lishi darkor. Bizning misolimizdagi iboraning ikki komponenti tennisga oid bo‘lib, sport sohasida ishlatiluvchi termindir. Yana o‘sha Oxford NED lug‘atidan uning ma‘nosi yoki ma‘nolarini ko‘rib chiqamiz.

Women – pl adult female persons

Tennis – a game for two or four players who hit a ball to each other over nets with rackets

Association – a group of people or organizations who join or work together for a particular purpose

Oxford NED lugʻatida berilgan bir qancha maʼnolardan kerakli boʻlgan sport sohasiga oid maʼnosini tanlab oldik. Bu iboraning birinchi komponenti va uchinchi komponentlarining ham maʼnolari yuqorida keltirib oʻtildi.

Bu birikmadagi barcha soʻzlar ot boʻlib, ular butun bir birikmani tashkil qilishgan. Bizga maʼlumki, bir sifat bir qancha otlar bilan bir iborada, yaʼni boshqa otlarni ham aniqlash uchun ishlatiladi. Masalan, “Thin shot”. Bu iboradagi “thin” soʻzi sifat boʻlib, nafaqat dastlabki otga, balki qolgan hamma otlarga birdek tegishli boʻlishi mumki. Aynan shunday hodisa aniqlovchi vazifasini bajaruvchi konstruksiyalarda uchraydi.

Masalan:

Thin pot

Thin display

Thin disk

Demak, “Thin shot” iborasidagi komponentlar bir birini toʻldirib quydagi maʼnoga ega boʻladi: a poor shot where the clubhead strikes too high up on the ball, resulting in a shallow flight path. Also known as "skulling" or "blading" the ball.

Oddiy soʻzlar maʼnosini oʻzgartirish yoʻli bilan yangi termin yasash koʻpgina tillarda sport sohasida lugʻat boyligini oshirishga imkon beradi. Sportga oid terminlarning kattagina miqdori umumadabiy til soʻzlarining, sport tarmoqlaridan olingan terminlarning maʼnolarini oʻzgartirish yoʻli bilan boyitilgan.

Terminlar yasashning bu usuli boshqalardan shunisi bilan farq qiladiki, boshqa hollarda yangi tushunchani ifodlash uchun qaytadan yangi shakl (yaʼni elementlari yangicha birlashtirilgan soʻz) yaratilsa, bu yerda yangi mazmun maʼno eski shakliga (yaʼni oldin mavjud boʻlgan tayyor soʻz olinadi) joylashtiriladi.

Maʼnoni oʻzgartirish yoʻli bilan termin yasashning oʻziga xos tomoni shundaki, terminlashtirilayotgan obyekt (yaʼni nom berish kerak boʻlgan perdmets yoki hodisa) xar doim nomi termin sifatida qoʻllanilayotgan perdmets yoki hodisa bilan qandaydir umumiylikka ega boʻladi. Bu umumiylik ularning tashqi koʻrinishi yoki bajaradigan vazifasi oʻrtasidagi oʻhshashlik va shu kabilarda nomoyon

bo'lishi mumkin. Mavjud predmetning nomini yangisiga faqatgina bu predmetlar tug'risidagi tushunchalar aniq, ularni o'zaro bog'laydigan umumiy jihatga ega bo'lgan holatdagina ko'chirish mumkin xolos, aks holda buni amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham terminlar yasashda ularning ma'nosiga, strukturaviy tuzilishiga e'tibor qaratish darkor.

Struktural – ma'noviy jihatdan tahlil etilayotgan sport terminlari qisqartma holda ham uchraydi. Bizning ilmiy tadqiqotimizda ularni tahlil qilishda avvalam bor qisqartmalarni semantik tahlil qilib bo'lmasligini ta'kidlamoqchimiz. Shu sababli ularning to'liq ma'nolariga ega bo'lish maqsadida yoyma so'zlarning tahlil etish lozim bo'ladi.

Ma'noni o'zgartirish yo'li bilan yasalgan terminlarni tarjima qilishda predmetning tavsifi uchun olinayotgan nom ko'chirishda asos vazifasini o'tovchi alomat, u yoki bu darajada, tasodifiy bo'lishi ham mumkin. Zeroki, bu yerda terminlar yasalishining boshqa yo'llaridan farqli o'laroq, zaruriy alomatlarni aks ettiruvchi termin yasashga to'g'ri kelmaydi, balki umuman butun bir predmetning vakili sifatida xizmat qila oladigan bir qancha atamalardan biri o'z ma'no tarkibida aks etirgan so'zni tanlab olish kerak bo'ladi. Nomini ko'chirishda aynan qaysi o'ziga xos alomat asos qilib olinishi nuqtai nazaridan (yoki boshqacha qilib aytganda, eski va yangi predmetlarning qanday umumiy belgilari termin yasashda qo'llanilishi) ma'noni o'zgartirish yo'li bilan termin yasashning quyidagi asosiy tur, usullarini farq qilish mumkin:

Tashqi atamalarning o'xshashligi asosida nomlash;

Vazifalarning o'xshashligi asosida nomlash;

Tushunchalarning bog'langanligi (yaqinligi)ga ko'ra nomlash;

Tushunchalarning o'xshashligiga ko'ra nomlash;

Tashqi atamalarning o'xshashligiga ko'ra yasalgan terminlar tushunchani ifodalash uchun, xuddi terminlashtirilayotgan obyektning alomatlarga ko'ra o'xshash so'zga tashlanadigan tashqi atamalar yoki alomat (shakli, o'lcham, rang va h. k. lar)ga ega bo'lgan predmetni ifodalovchi so'zdan foydalaniladi.

Alomatlarning o'xshashligiga ko'ra nom berishda ko'pincha alohida predmet va jonli narsalar nomi qo'llaniladi yoki boshqa narsalar ham qo'llaniladi.

Xullas struktural – ma'noviy tahlil qilishda qisqartmalarning komponentlarini belgilashdan iborat ekan. Chunki ularning tahlili sezilarli darajada komponentlar o'rtasidagi ma'noviy aloqani aniqlashni lozim etadi. Shu sababdan komponentlarning mavjud qayta anglatilishini o'rganib chiqish vazifasi dastlabki o'ringa chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Appolova M.A. Grammaticheskiye trudnosti perevoda. M. 1980.
 - 2.Barxudarov L.S. Retsker Y.I. Kurs leksiy po teorii perevoda. M. 1978.
 - 3.Barxudarov L.S. Yazik i perevod. M. 1975.
 - 4.Breus YE.V. Osnovi teorii i praktiki perevoda s ruskogo na angliyskiy. M. 1998.
 - 5.Vlaxov S. Florin S. Neperevodimoye v perevode. M. 1970.
 - 6.Gak V.G. Semanticheskaya struktura slova kak komponent semanticheskoy strukturi viskazivaniya. M. 1971.
 - 7.Yermolovich D.I. Funktsionalno-semanticheskiye osobennosti individualiziruyushix znakov (na materiale sportivnix terminov). Avtoreferat diss. na soisk. uch. stepeni k.f.n. M. 1981.
 - 8.Komissarov V.N. Lingvisticheskiye modeli protsessa perevoda. Tetradi perevodchika. M. 1972.
 - 9.Komissarov V.N. Slovo o perevode. M. 1973.
 - 10.Komissarov V.N. Tekst i perevod. M. 1988.
-